



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



## TASAVVUF TARIQATINING TARIHIY TADQIQI

**Turobov Bekpulat Nusratullayevich**

*Samarqand davlat chet tillar instituti,  
Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalar  
kafedrası dotsenti, PhD.*

**Annotatsiya:** *Mazkur tezisdá tasavvuf tariqatining tarixiy tadqiqi bo'yicha fikr yuritilgan. Tasavvuf nazariyotchilari ruhiy holat bilan birga, gnoseologik savollarga javob berishga intilib, shariat, tariqat, haqiqat-uchlik shu bilan birga bilishning turli pog'onalari degan xulosaga kelganlar.*

**Kalit so'zlar:** *Shariat, tariqat, haqiqat, safar, sayohat, so'fizm, falsafiy g'oyalari*

Tasavvufning IX asrdan boshlab, taxminan XII asrning boshlarigacha bo'lgan davr nazariyalarida asosiy qoidalarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta'kidlash joizki, tasavvuf oqimlari unsurlarida umumiylik mavjud. Birinchidan: psixologik nazariyalar. Tasavvuf taraqqiyotining butun bir davrida mistik o'z-o'zini takomillashtirish yo'lining uch bosqichga-shariat, tariqat, haqiqatga bo'linishini ko'rsatish mumkin. Tariqatda safar, sayohat obrazi kiritilgan ekan, unda manzil obrazi ham mavjuddir. Bu manzillar maqom termini bilan belgilanadi. Bu maqomlarning har birida ruhiy holatlar bo'lib, ular shu bosqichga xosdir. Ikkinchidan: gnoseologik unsurlar. So'fizmning dastlabki nazariyotchilarining psixologik tadqiqotlari gnoseologik xarakterdagi masalalarni ko'tarib chiqishga olib keldi, deya e'tirof etadi E.E.Bertels. Bu olim mohiyatan shariat, tariqat, haqiqat uchligi ayni paytda bilishning uch bosqichiga ham mos keladi deb hisoblaydi. Tasavvuf nazariyotchilari ruhiy holat bilan birga, gnoseologik savollarga javob berishga intilib, shariat, tariqat, haqiqat-uchlik shu bilan birga bilishning turli pog'onalari degan xulosaga kelganlar. Bu uchta pog'onani quyidagi o'xshashlik bilan izohlaganlar: 1) Ilm al-yaqin ("ishonchli bilim"). Bu shariat bosqichida odatdagi mantiqiy bilishdir; 2) ayn al-yaqin ("to'liq ishonch"). Bu solih tariqat bosqichida oladigan bilimdir; 3) Xaq al-yaqin ("haqiqiy ishonch"). Bu bilishning aynan haqiqat bosqichiga mos shaklidir.<sup>78</sup>

Dastlabki mutasavviflarni ontologik muammolar juda oz qiziqtirgan. Tasavvuf nazariyotchilarining fikriga ko'ra, payg'ambarning ruhi birinchi bo'lib yaratilgan, u yorug' nur sochuvchi nuqta shaklida paydo bo'lgan. Boshqa tanlangan ruhlar shundan nurlangan. Mutasavviflar yaratilishdan oldin yagona ilohiy substansiya mavjuddir, deb hisoblaydilar, Demak, yuqoridagilarga asoslanib, falsafiy g'oyalarning tasavvuf doirasiga kirib kelishi ancha oldingi bosqichda sodir bo'lgan, deb xulosa qilish mumkin.<sup>79</sup>

<sup>78</sup>Мухаммадходжаев А. Гносеология суфизма. Душанбе. Дониш.1990. Б. 108.

<sup>79</sup> Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. Том. 3. Издательство "Наука". Главная редакция Восточной литературы. Отв. ред. А.Н.Болдырев. М.1965. Б.39.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



E.E.Bertelsning tasavvuf adabiyotiga qiziqishi shu davr fani holati bilan bog'liqdir. Xorijiy va Sho'ro mamlakatlarining yirik olimlari, butun o'rta asr "fors poeziyasi" (bu davrda shunday nom bilan tilga olish odat edi) qahramonona epos, saroy poeziyasi yevropalik tushunishi qiyin bo'lgan mistik poeziya, deb e'tirof etganlar. Yirik shoirlar (Sanoi, Nizomiy, Rumi, Hofizlar)ning nomlarini bevosita tasavvuf bilan bog'laganlar, ularning ijodini tushunish uchun kalitni faqatgina tasavvuf ta'limotlaridan topish mumkin, deb hisoblaganlar. Shu davrda tasavvufni jiddiy, chuqur o'rganish endi boshlangan edi. (XX-asrning dastlabki o'n yilligida R.Nikolson va L.Massiononning mumtoz asarlari paydo bo'ldi).

Tasavvuf va tasavvuf poeziyasini o'rganayotgan E.E.Bertels bir qancha hal qilinishi zarur bo'lgan muammolarga duch keldi. Tasavvuf manbalari, g'oyalarining paydo bo'lishi, terminlarining ma'nosini aniqlash va shunday qilib, poeziyasining rivojlanishi asosiy yo'lini belgilashga harakat qilish, turli maktablarining vorisiy aloqadorligini aniqlash kerak edi. Yo'l-yo'lakay tasavvuf traktati va poemasi kompozitsiyasi (badiiy asar tuzilishi)ning shakllanishi, tasavvuf shayxining shaxsi va uning afsonaviy tarjimai holi bilan muttanosibli masalalari kelib chiqdi<sup>80</sup>.

E.E.Bertels XIX-asrning oxirida fan uchun shunchalik xos bo'lgan "tasavvuf manbalarini", adabiy, g'oyaviy vorisligi, ko'pincha tadqiqot predmetining o'zini (misol uchun, musulmon falsafasini) uning adabiy manbalariga mujassamlashga intilib keluvchi izlanishlarga qiziqishdan o'zini tiya oldi. Shu bilan birga E.E.Bertels o'zaro adabiy ta'sir va vorislikning rolini unutmad. U bir qancha asarlarida tasavvufning zardo'shtiylik, yangi afлотunchilik bilan aloqasini tadqiq qiladi, ammo g'oyalar vujudga kelishining asosiy manbaini jamiyat hayoti, ijtimoiy o'zgarishlar va moddiy shart-sharoitlarda ko'radi. G'arb olimlari tomonidan eng avvalo dunyodan butunlay voz kechish, "ichki dunyoga g'arq bo'lish", deb talqin qilingan tasavvufni o'rgangan E.E.Bertels undan insonparvarlik xususiyatlari, jonli insoniy hissiyotlarni, faollik unsurlarini izlaydi. U Nizomiy ijodining progressiv xarakterini ko'rsatadi. Nizomiyning ijodi misolida u 1923-yildayoq, o'tmish yirik shoirlarining qariyb hammasini "shayxlar" deb hisoblagan, ularni tasavvufning "muysafid taqvadorlar"ni ro'yxatiga va iboralarini antologiyaga (turli mualliflarning saylanma asarlari) qo'shgan, o'rta asr an'anasi, shuningdek, xuddi Nizomiyda "zohidning hayotidan uzoqlik"ni ko'rgan Yevropa fani nohaq ekanligiga ishonch hosil qildi. U yoki bu shoirlarning ijodida tasavvuf unsurlarining mavjudligi uning umumiy tarqalishi bilan izohlanadi, ammo hali shoirni bu tasavvuf nazariyotchisi qilib qo'ymaydi. Xususan, E.E.Bertels bu haqdagi nuqtai nazarini 1929-yilda yozgan "Navoiy va Attor" maqolasida aniq ko'rsatib berdi. U Navoiy ijodidagi insonparvarlik xususiyatlarini e'tirof etadi va uning

---

<sup>80</sup>Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. Том. 3. Издательство "Наука". Главная редакция Восточной литературы. Отв. ред. А.Н.Болдырев. М.1965. С.5-6.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



tasavvufga nisbatan bo'lgan munosabatini to'g'ri ta'riflaydi. Shu bilan birga olim Navoiy asarlarining muhim adabiy qimmatga ega ekanligini bir necha bor ta'kidlaydi<sup>81</sup>.

Tasavvuf harakati adabiyot, xususan poeziya bilan qanday aloqaga kirishib ketdi va dunyo adabiyotiga bir qator boqiy yodgorliklarni qoldirdi, degan savolga javob topish muhim edi. Mutasavviflar xudo tomonidan yuborilgan o'ziga xos iltifot hisoblangan jazavali holatga erishishga katta ahamiyat berganlarliklari bizga ma'lumdir. Shuning uchun ilk davrlarda ular doirasida ekstaz (jazava)ga sabab bo'luvchi vosita katta kuch-g'ayrat bilan izlandi va bu vositalardan biri katta samara berishi tan olindi. Bu musiqa bo'lib, u badiiy so'z bilan qo'shib olib borildi. Musiqani eshitish ko'pgina shayxlarning urfiga aylandi. Tasavvufning mumtoz nazariyotchilaridan biri al-G'azzoliy "Kimyoi-saodat" asarida qo'shiq aytishning jazavaga olib kelishdagi beshta sababini bayon qiladi. G'azzoliyda boshqa bir muhim ko'rsatma ham uchraydi. U qo'shiq ma'naviy zavq-shavq o'rniga, jismoniy ehtirosga ham olib kelishi mumkin, deb ogohlantiradi.<sup>2</sup> Shuning uchun shayxlar tomonidan sof ramziy talqin qilinadigan ashulalarning tanlab olinishiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Ilk davrlarda zo'rlik bilan ramziy talqin qilinmaydigan, balki chuqur o'ylangan ramziy ma'noga ega bo'lgan maxsus poeziyaga tabiiy ravishda ehtiyoj tug'ildi, deb taxmin qilish mumkin. Bunday poeziya VIII-asrlarda shakllana boshladi, IX-asrga kelib uning arab tilidagi ko'p sonli namunalari paydo bo'ldi. Jumladan, Abu Said ibn Abu-al Hayra (967-1049) to'g'risidagi ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, Xuroson tasavvufining bu yirik vakili o'zining tashviqotlarida ruboiylardan keng foydalangan. Bu ruboiylar xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, hali bu davrda kiborlar doirasi bundan ancha uzoqda edi. Bu davrda muhabbatga oid she'rlardan foydalanilgan. Ular dunyoviy lirika sifatida paydo bo'lib, oddiy dunyoviy muhabbatni tarannum etgan bo'lsa-da, o'ziga xos tarzda talqin qilingan. Abu Said tomonidan faqat ruboiylar emas, g'azallar ham ishlatilgan.

X-asrning o'rtalarida shayxlarning suhbatlarida she'rlar deklaratsiya (chiroyli o'qib berish) qilingan. Bu qo'shiqlarning namunalari bir xil xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularga oddiylik, tabiiylik, xalq ijodiyotiga yaqinlik xos edi. Chunki shayxlarning suhbatlarida qisman mashhur va boy odamlar qatnashgan bo'lsalar-da, ammo tinglovchilarning asosiy qismi savodsiz yoki chalasavod hunarmandlar va mayda savdogarlar bo'lgan. Shayx o'zining suhbatlarini ularning darajalariga moslashtirishi zarur edi. Bundan xalq ijodiyotiga murojaat qilishning sababi tushunarli bo'ladi. Bu she'rlarda insonning hissiyotiga kuchli ta'sir qilish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Tasavvuf lirikasining bu xususiyatlari keyinchalik ham saqlanib qolgan va buni ayniqsa Hirot shayxi Abdullo Ansori (1006-1088) ruboiysida kuzatish mumkin. Shuni ta'kidlash zarurki, so'nggi tasavvuf adabiyotining turli-tumanligi nihoyatda shayxlar o'tkazadigan majlisga borib taqaladi, u orqali bu adabiyotning umumiy xususiyatlari belgilanadi. Tasavvuf poeziyasi mistika ruhi bilan sug'orilishiga qaramasdan, uni xalqparvarligi, feodal aristokratiyaga

<sup>81</sup>Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. Том. 3. Издательство "Наука". Главная редакция Восточной литературы. Отв. ред. А.Н.Болдырев. М.1965. Б.7.

<sup>2</sup>Ўша асар... Б.45.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



nisbatan tanqidiy munosabati saroy poeziyasiga qaraganda jonli va hayotbaxsh qilib qo‘ydi. Tasavvuf poeziyasi qaysidir darajada ba‘zi davrlarning xalq ijodi to‘g‘risida mulohaza yuritishiga imkoniyat yaratadi. Bu esa uning katta qadr-qimmatga egaligidan dalolat beradi.<sup>82</sup>

E.E.Bertels ilmiy ijodida tasavvufning vujudga kelishi, g‘oyalarining tadrijiy rivojlanishi, oqimlarining o‘ziga xosligi, ulardagi mushtaraklik, ontologik va gnoseologik unsurlar, falsafiy g‘oyalarning tasavvuf tizimi doirasiga kirib kelishi masalalariga jiddiy e‘tibor qaratilgan, ular to‘g‘risida fikr-mulohazalar bildirilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. Том. 3. Издательство “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. Отв. ред. А.Н.Болдырев. М.1965. Б.39.

2. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. Том. 3. Издательство “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. Отв. ред. А.Н.Болдырев. М.1965. С.5-6.

3. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. Том. 3. Издательство “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. Отв. ред. А.Н.Болдырев. М.1965. Б.7.

4. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. Том. 3. Издательство “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. Отв. ред. А.Н.Болдырев. М.1965. С.50-53.

Мухаммадходжаев А. Гносеология суфизма. Душанбе. Дониш.1990. Б. 108.

---

<sup>82</sup> Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. Том. 3. Издательство “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. Отв. ред. А.Н.Болдырев. М.1965. С.50-53.

